



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

ISSN – 2181-4201

**TA'LIM
TRANSFORMATSIYASI**

ILMIY – METODIK JURNAL

Nº 3

**BUXORO – 2023
«DURDONA» NASHRIYOTI**

ILMIY – METODIK JURNAL
TAHRIR HAY'ATI TARKIBI

Bosh muharrir:

Daminov Mirzohid Islomovich

Buxoro davlat pedagogika instituti direktori, p.f.n., dotsent.

Tahrir hay'ati raisi:

Qahhorov Siddiq Qahhorovich

pedagogika fanlari doktori, professor.

Ma'murov B.B.

- pedagogika fanlari doktori, professor
- O'zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor
- iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
- fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
- psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
- texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
- iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
- psixologiya fanlari doktori, professor
- pedagogika fanlari doktori, professor
- fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
- filologiya fanlari doktori, professor
- texnika fanlari doktori, professor
- biologiya fanlari doktori, professor
- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
- fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
- texnika fanlari doktori, professor
- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
- filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk-Qozoq universitet)
- filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
- filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy universiteti)
- filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
- filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)
- pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

Timur Kojaog'lu

Irina Pokrovskaya

Murat Elmali

Mehmet Y.Y.

Starikov Marcelo

Muassis: BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tahririyat manzili: Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 2-uy.

Telefon: (+998 65) 226-10-97

Faks: (+998 65) 226-66-75

Elektron manzil: buxdpi@buxdpi.uz.

ISSN – 2181-4201

ZAMONAVIY ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA DUAL TA'LIMNING IMKONIYATLARI

Salimova Sarvinoz Farxodovna

Buxoro davlat Pedagogika institute

Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti,

Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

sarvinoz8915g@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, dars jarayonini biologiya fanlari misolida dual ta'larning o'rni va faoliyat yurituvchi mutaxassis kadrlarni shakllantirishning nazariy asoslari keltirib o'tilgan.

Dual ta'lim tashkil etilishi ko'zda tutilayotgan ta'lim muassasalari imkoniyatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda biologiya fanlarini o'qitishda dual ta'limni roli keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy kompetentlik, kompetentlilik, nazariya, pedagogika, metodika, muvozanat, dual ta'lim, "duallik", "ikkilangan, ikkilangan birlik", ta'larning xalqaro standarti.

Аннотация. В данной статье раскрывается роль дуального образования и теоретические основы формирования кадров работающих специалистов, которые в полной мере отвечают требованиям реализуемых сегодня в обществе реформ, устойчивы к конкуренции в производственной сфере, способны приспосабливаться к резким изменениям, а роль дуального образования на примере учебного процесса биологических наук.

Представлены возможности образовательных учреждений, в которых планируется дуальное обучение, роль дуального образования в преподавании биологических наук в порядке, установленном Министерством высшего и среднего профессионального образования.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, компетентность, теория, педагогика, методика, баланс, дуальное образование, «дуальность», «дуал», международный стандарт образования.

Annotation. In this article, the role of dual education and the theoretical basis of formation of working specialist personnel, who fully meet the requirements of the reforms implemented in society today, are resistant to competition in the production sector, can adapt to sudden changes, and the role of dual education in the example of the teaching process of biological sciences cited.

Key words: Professional competence, competence, theory, pedagogy, methodology, balance, dual education, "duality", "dual unit", international standard of education.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi professional ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish to'g'risida"gi qarori loyihasi muhokama uchun joylashtirildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi professional ta'limida o'qitishning dual tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zлari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtiradi.

Bunda, mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi korxona (tashkilot)lar dual ta'lim joriy etish bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taklif kiritishlari mumkin. Dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Dual ta'lim tashkil

etilishi ko'zda tutilayotgan ta'lim muassasalari imkoniyatlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan ekspertlar ishtirokida o'rganilishi mumkin.

Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchilar dual ta'limga o'qishini ko'chirish taqiqlanadi. Shuningdek, Ta'lim muassasasi va korxona (tashkilot) o'rtasida yoki korxona (tashkilot) va o'quvchi (lar) o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinganda o'quvchi(lar) o'qishi mos ta'lim darajasidagi kunduzgi ta'lim shakliga o'tkaziladi. Dual ta'limda o'quvchilar to'lov-kontrakt yoki davlat buyurtmasi bo'yicha davlat granti asosida ta'lim olishlari mumkin.

Talabalar uchun dual ta'lim kasb-hunarni o'rganishda mustaqil o'zlashtirish imkoniga ega bo'lish hamda ustozlarning tanbeh va izohlariga moslashish uchun ajoyib imkoniyatdir. 350 yil avval Yan Amos Komenskiy tomonidan ixtiro qilingan "hammaga hamma narsani

o'rgatish" tamoyiliga asoslanib o'qitilgan an'anaviy dars shakli o'tgan asrda inqiroz bosqichiga o'tgan edi. Kadrlar tayyorlash va xalqaro mehnat bozoriga yetuk mutaxassislarini chiqarish samaradorligi va sifatini oshirishning aniq ifodalangan usuli - bu kasbiy ta'lim mакtablariga dual ta'lim tizimini joriy etish hisoblanadi.

Dual ta'lim kontseptsiyasini taqdim etish uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab oldik:

Maqsad: - mutaxassislarini tayyorlash orqali kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish; kasb-hunar maktablarining o'quv rejalariga zamonaviy o'qitish usullari va vositalarini joriy etish; uzluksiz kasb-hunar ta'limi maktablari tizimini modernizatsiya qilish; mutaxassislarning kasbiy standartlarini takomillashtirish.

Vazifalar: - mutaxassis tayyorlash tizimi va xalqaro mehnat bozori talabi o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish; jamiyatimizning barcha sohalari va mehnat bozori talabiga javob beradigan bir qator kasb-hunar ta'limi muassasalarini tashkil etish; bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorlarligi, yetuk kadr, shuningdek, ularni professional bo'lib yetishishini ta'minlaydigan o'quv dasturlarining mazmuni va tuzilishini o'zgartirish, sifat

jihatidan takomillashtirish; bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda, tegishli darajada ishlab chiqilgan, ilmiy, uslubiy va moddiy-texnik ta'minotni joriy etish.

Talabalar uchun dual ta'lim barqarorlik va kelajakda ishonchni qozonish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ushbu tizim keraksiz qiyinchiliklarsiz, kasbiy va mehnat faoliyatiga muammosiz va teng ravishda qo'shilishga imkon beradi. Dual ta'lim tizimi ko'p narsalarga imkon beradi. Masalan: Korxonalar bilan birgalikda ta'lim olishni tashkil etish kelajakda korxonani malakali kadrlar bilan ta'minlash, o'z iqtisodini rivojlantirish uchun vaqt va xarajatlarni tejaydigan, ishlab chiqarish muhitiga moslashib olgan xodimlarni tanlab oladi.

Dunyo tajribasida dual ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu yoshlarga bir paytning o'zida ham o'qish, ham ishslash imkonini beradi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida keng joriy etilgan ushbu tajriba yoshlarga nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash, o'qish davrining o'zida doimiy ish o'rniga ega bo'lish, ta'lim jarayonini ishlab chiqarishga o'zaro uyg'unlashtirish kabi samarali jihatlari bilan ahamiyatlidir. Dual o'qitish tizimi - bu kasbiy ta'limning tarixan yig'ilib kelingan shakli bo'lib,

Evropaning siyosiy, iqtisodiy, diniy va texnologik tarixiga kirib kelgan.

Bugungi kunda ushbu o'quv tizimi Germaniya, Avstriya, Daniya, Gollandiya, Shveytsariyada muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. "dual", "duallik" atamasi (lot. "dualis" so'zidan olingan) "ikkilangan, ikkilangan birlik" degan ma'noni anglatadi. Dual o'qitish ta'limning turli sohalarida keng qo'llanilish imkoniyati mavjud. Pedagogikada "dual", "dual tizim" tushunchalari birinchi marta Germaniyada 1960-yillarning o'rtalarida ta'limning yangi shakli sifatida qo'llanila boshlangan. Keyinchalik ta'limning ushbu turi dunyo bo'yicha tan olindi va dunyo miqyosida shuhrat qozondi. Bugungi kunda Germaniyada dual o'qitish tizimi ta'limda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

Biologiyani o'rganish mehnatga muhabbat va hurmatni, mehnatni insoniyatning barcha moddiy va ma'naviy boyliklarining manbayi sifatida e'tirof etishni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabda biologiya kursini o'rganish to'g'ri yo'lga qo'yilganda maktabni tamomlab chiqqan o'quvchida keyin ham mustaqil ravishda ma'lumot olish yo'li bilan

bilimlarini tinmay yangilab borish ehtiyojini tug'diradi va rivojlantiradi.

Respublikamizda milliy ta'limni modernizatsiya qilish, o'zgargan ijtimoiy-iqtisodiy muhitning yangi raqobat sharoitida kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish, uzlusiz ta'limda kasbhunarga yo'naltirish samaradorligini oshirish, egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha "professional ta'lim"² darajalarini amalga oshirish, psixologik-pedagogik tashxisning ahamiyatini oshirish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, "professional ta'lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rinnegi egallashiga to'sqinlik qilmoqda³. Shu nuqtayi nazardan umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlarining samarali metodikalarini ishlab chiqish, bu jarayonda biologiya fani o'qituvchilarini kasbga yo'nativish sohasida metodik tayyorgarligini

² Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ти қонуни ЎРҚ-637-сон. 23.09.2020 й.//Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси,

24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.

³ <https://lex.uz/docs/4500926>

takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida yoshlarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirish xalqaro harakati WorldSkills International⁴ tomonidan kasb tanlash va kasbiy ko'nikmalarни rivojlantirish sohasida global yo'nalishlarni belgilash, ro'y berayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mehnat bozorining beqaror taraqqiyoti sharoitida yangi kasblar va mutaxassisliklar paydo bo'lishi, jamiyatda kadrlar kasbiy tayyorgarligiga talablarning o'sishi maktab bitiruvchilaridan kelajakda kasb tanlashda alohida mas'uliyat va tayyorgarlikni talab etadi. Ta'lif va kasbga yo'naltirish xalqaro assotsiatsiyasi (IAEVG)ning ta'kidlashicha, to'g'ri tanlangan kasbiy faoliyat sohasi shaxsni garmonik shakllantirishga hissa qo'shadi, uning ijodiy imkoniyatini amalga oshirish, ijtimoiy moslashishiga yordam beradi⁵.

Respublikamizda milliy ta'limi modernizatsiya qilish, o'zgargan ijtimoiy-iqtisodiy muhitning yangi raqobat sharoitida kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish, uzlusiz ta'limda kasbhunarga yo'naltirish

samaradorligini oshirish, egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha "professional ta'lim"⁶ darajalarini amalga oshirish, psixologik-pedagogik tashxisning ahamiyatini orshirish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, "professional ta'lim dasturlari YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'lifning xalqaro standart tasniflagichi (MSKO) darajalari bilan uyg'unlashmaganligi, o'quv jarayoniga O'zbekistonning Milliy kvalifikatsiya tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rinni egallashiga to'sqinlik qilmoqda⁷. Shu nuqtayi nazardan umumiy o'rta ta'lif muassasalarida kasbga yo'naltirish ishlarining samarali metodikalarini ishlab chiqish, bu jarayonda biologiya fani o'qituvchilarini kasbga yo'nativish sohasida metodik tayyorgarligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy maktabda biologiya kursi tarkibi kasbga yo'naltirish sohasida katta imkoniyatga ega bo'lib, o'quvchilarni nafaqat ekolog, farmasevt, sanitariya shifokori, landshaft dizayneri kabi hozirgi

⁴

<https://worldskills2019.com/en/event/organizers/worldskills-international/index.html>

⁵ <https://iaevg.com>


⁶ Ўзбекистон Республикасининг "Таълим

тўғрисида"ги қонуни ЎРҚ-637-сон. 23.09.2020 й./Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.

⁷ <https://lex.uz/docs/4500926>

zamonda dolzarb bo'lgan mutaxassisliklar bilan, balki boshqa ko'plab kasblar bilan ham tanishishiga imkon yaratadi. Aynan mana shu sababli ham darslarda kasbga yo'naltirish ishlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida kasbiy ta'limni tilga olish mumkin. Biologiyani o'qitishda kasbga yo'naltirish muammozi bilan metodist olimlardan J.O.Tolipovaning ishlarini e'tirof

etish mumkin. Olima o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmada "Biologiya" o'quv fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish muammolariga to'xtalib o'tadi, shuningdek, u tomonidan biologiyani sohalarga yo'naltirib o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan



Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida biologiya fanlarini o'qitishda dual ta'larning roli.

5-sinf biologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlari. 5-sinf biologiya darslarida o'quvchilarni gulli o'simliklar va ularning tabiatda

hamda inson hayotida tutgan o'rni bilan tanishtirayotganda, albatta, mikrobiolog, biokimyogar, shifokortiziatri, sanitariya shifokori, shifokor-infekzionist, farmasevt, tuproqshunos yoki agroekolog kabi mutaxassisliklar haqida so'zlab berish lozim.

6-sinf biologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlari. 6-sinf biologiya darslarida “O’simliklar. Bakteriyalar. Zamburug’lar. Lishayniklar”ni o’rganishda kirish darsida biologiyaga oid bilimlarning muhim amaliy ahamiyatiga o’quvchilarning e’tiborini kuchaytirish, ko’plab kasbiy faoliyatlarda ularning zarurligini ta’kidlab o’tish lozim.

7-sinf biologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlari. 7-sinfda o’rganiladigan “Zoobiologiya” kursi o’quvchilarni kasblar dunyosining turfa xilligi bilan va albatta, biologiya o’qituvchisi kasbi bilan tanishishiga ko’mak beradi.

8-sinf biologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlari. “Odam va uning salomatligi” kursini o’rganish jarayonida o’quvchilarni turli mutaxassislikdagi tibbiyotga oid kasblar bilan tanishtirish mumkin.

9-sinf biologiya darslarida kasbga yo'naltirish ishlari. 9-sinflarga “Biologiya: sitologiya va genetika asoslari” kursi maktabda biologiya fanini o’rganishga yakun yasaydi. Shu sababli, o’quvchilar oldida ta’lim ixtisosligini tanlash bo'yicha muhim masalani yechish uchun 10-11-sinflarda biologiya darslarida kasbga yo'naltiruvchi ishlarga nisbatan ko’proq e’tibor ajratish lozim.

Dual ta’lim nafaqat ma’lum bir professional vazifalarni bajarishga o’rgatadi, balki mehnat jamoasida muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradi, kerakli vakolat va mas’uliyatni shakllantiradi. Dual ta’lim tizimining afzalliklarini ta’kidlab o’tsak:

1. Mutaxassislarni amaliy tayyorlash nafaqat korxonalarda, balki ta’lim tashkilotlarining ustaxonalari, laboratoriyalari va o’quv maydonchalarida ham amalgalashiriladi;

2. Ta’lim dasturlarining mazmuni va tarkibi ta’lim muassasasi va korxona o’rtasida kelishilgan bo’lib, barcha tomonlarning talablarini qondirishga imkon beradi.

3. Ta’lim muassasasi va korxona o’rtasida yaqin munosabatlar, o’zaro hamkorlik rivojlanishi mumkin.

4. Ishga joylashganda, mehnat jarayoniga tez moslashish ehtimoli katta.

5. Korxonada amaliy ishlarni bajarish uchun o’quv muassasasidagi nazariy faoliyatning doimiy o’zgarishini o’rganish uchun eng yaxshi turki bo’lib xizmat qiladi;

6. Kasbni aniqroq tushunishni ta’minlaydi

Shunday qilib, dual ta’lim-korxona (muassasa), talaba hamda davlatning manfaatlari va talablariga javob berish muhim ekan. Yuqori va zamonaviy darajaga ega

bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda dual ta'lif tizimining elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki aynan mana shunday mashg'ulotlar talabaga motivatsiya beradi, o'z

bilimlarini ko'rsatish, ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini beradi, shu bilan birga fikrlash, o'z faoliyatini rejalashtirish va kutilgan natijalarga erishishni o'rgatadi.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. "Ta'lif to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637-son 23.09.2020 y. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli farmoni.
3. Salimova S., Kenjayev O. ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI ASOSIDA BOTANIKA FANINI O'QITISH SAMARALINI OSHIRISH //Tibbiyot fanlari va klinik tadqiqotlar xalqaro xabarnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 1. – S. 19-20.
4. Farkhodovna S. S., Qobilovich K. O. Increasing the Effectiveness of Teaching Botany on the Basis of Advanced Foreign Experience //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 13-17.

ANIQ VA TABIIY FANLAR	
Rashidov A.Sh. Matematika darslarida ko'phadlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....	76
Muhammedov Sh.M., Atayeva S.R. Oliy ta'limda robototexnika asoslari fanini o'qitish muammolari	84
Salimova S. F. Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida biologiya fanlarini o'qitishda dual ta'limning imkoniyatlari.....	94
Mavlonov A.M. Qizilqum cho'lida malakaviy dala amaliyotini tashkil qilish tajribasidan (Jongeldi mahallasi misolida).....	102
Shokirov A.A. Buxoro viloyati ko'llarining turistik imkoniyatlari.....	108
FILOLOGIYA FANLARI	
Mirxanova G.R. Sinonimik lug'atlar va ularga so'z tanlash masalasi.....	114
Yunusova M.Sh. Internetdagi shifokorlar va bemorlar o'rtasidagi nutqning lingvistik, kommunikativ va pragmatik xususiyatlari.....	121
IJTIMOIY FANLAR	
Shokirov M.R. Ma'rifatli jamiyat barpo etishda tarixiy tafakkur ehtiyoji.....	128
Rustamov F. R. Bo'sh vaqt doirasida mehnat va hordiq nisbatini maqsadli ta'minlashning dolzarbligi.....	137
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARI NAZARIYASI VA METODIKASI	
Muzafarova F.B. Kulturoй женщин залог здравого генофонда страны.....	144
Saidov I.I. O'z-o'zini jismoniy tarbiyalash orqali o'quvchilar salomatligini mustahkamlab, ularni har tomonlama jismoniy rivojlantirish.....	152

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

ILMIY – METODIK JURNAL

BOSH MUHARIR

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
DAMINOV MIRZOHID ISLOMOVICH



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga
ruxsat etildi: 29.10.2023. Bichimi 60x84¹/₈. Kegli 14 shponli. « Palatino
Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog‘ozi.
Bosma tabog‘i 12.5 Adadi ___. Buyurtma № __ .



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar O‘zbekiston Mustaqilligi ko‘chasi, 70/2 uy.

Tel: 0(365) 222-46-46